

TANQIDIY SOTSILOGIYA VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI

Ahmedova Shahrizoda

O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

@shahrizodaa072@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15294037>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tanqidiy sotsiologiyaning kelib chiqishi, mohiyati hamda asosiy tamoyillari yoritilgan. Tanqidiy sotsiologiya ijtimoiy tengsizlik, hukmronlik va adolatsizliklarni tahlil qilish orqali jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishga intiladi. Bu yondashuvning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va interdisipliner xarakteri maqolada tahlil etilgan. Ushbu yondashuv jamiyatni faqat kuzatish va tushunish bilan cheklanmay, balki uni o'zgartirishni ham maqsad qiladi. Ushbu maqola orqali tanqidiy sotsiologiyaga kengroq ta'rif berish haqida.

Kalit so'zlar: tanqidiy sotsiologiya, tengsizlik, hukmronlik, ijtimoiy adolat, davlat sotsiologiya, tanqidiy fikrlash.

КРИТИЧЕСКАЯ СОЦИОЛОГИЯ И ЕЕ ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ

Аннотация. В статье рассматриваются истоки, сущность и основные принципы критической социологии. Критическая социология стремится добиться позитивных изменений в обществе путем анализа социального неравенства, господства и несправедливости. В статье анализируются теоретические основы, практическая значимость и междисциплинарный характер данного подхода. Этот подход направлен не только на наблюдение и понимание общества, но и на его изменение. В этой статье дается более широкое определение критической социологии.

Ключевые слова: критическая социология, неравенство, управление, социальная справедливость, государственная социология, критическое мышление.

CRITICAL SOCIOLOGY AND ITS BASIC PRINCIPLES

Abstract. This article discusses the origins, essence, and basic principles of critical sociology. Critical sociology seeks to bring about positive change in society by analyzing social inequality, domination, and injustice. The theoretical foundations, practical significance, and interdisciplinary nature of this approach are analyzed in the article. This approach aims not only to observe and understand society, but also to change it. This article is about providing a broader definition of critical sociology.

Keywords: critical sociology, inequality, governance, social justice, state sociology, critical thinking.

Tanqidiy sotsiologiya — bu ijtimoiy haqiqatni faqat tasvirlabgina qolmay, balki uni o'zgartirishga intiladigan sotsiologiyani yo'nalishidir. Bu yondashuv jamiyatdagi kuch munosabatlari, tengsizlik, zo'ravonlik, va ijtimoiy adolatsizliklarni fosh qilish va bartaraf etishga harakat qiladi. Tanqidiy sotsiologiya odatda marksistik, neo-marksistik, feminizm, irqchilikka qarshi yondashuvlar bilan bog'liq bo'ladi¹.

Tanqidiy fikrlash bu — fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi.

Tanqidiy sotsiologiyani asosiy tamoyillari:

1. Ijtimoiy tengsizlikka e'tibor: Tanqidiy sotsiologlar jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy tengsizliklarni tahlil qilishadi. Ular kuch va boylik muayyan guruhlar qo'lida qanday jamlangani va bu boshqalarning imkoniyatlarini qanday cheklashini ko'rsatishga harakat qilishadi.
2. Status-kvoni savol ostiga qo'yish: Ular mavjud ijtimoiy tuzumni (masalan, kapitalizm, patriarxiya) tanqid qiladi va uning adolatsizliklariga qarshi turadi.
3. Amaliy yondashuv: Tanqidiy sotsiologiya nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuvni ham qo'llaydi. Ular jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi faol choralarini ilgari suradilar.
4. O'zgarishga intilish: Maqsad faqat tahlil emas, balki ijtimoiy o'zgarishga erishishdir. Bu yo'nalishdagi sotsiologlar ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglikni ta'minlash tarafdoridir.
5. Mustaqillik va tarafkashlikning qayta talqini: An'anaviy sotsiologiya neytrallikni targ'ib qilsa, tanqidiy sotsiologiya esa ilm-fan tarafkash bo'lishi mumkinligini tan oladi — u adolatsizlikka qarshi tarafkashlik qiladi².

Tanqidiy sotsiologiya XIX asrda Karl Marksning asarlari asosida shakllangan bo'lib, kapitalistik tuzumning adolatsizliklarini fosh qilishga qaratilgan edi. Keyinchalik bu yondashuv Frankfurt maktabi olimlari (masalan, Teodor Adorno, Maks Xorkhaymer) tomonidan yanada rivojlantirildi. Ular iqtisodiy kuch, mafkura va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochib berdi. Tanqidiy sotsiologiya jamiyatni chuqurroq tushunish, uning muammolarini aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini taklif etishga xizmat qiladi.

¹ https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/24/NamDU-ARM-7776-Sotsiologiya_tari.

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya>

Bu yoʻnalish jamiyatdagi adolatsizliklarni fosh etish orqali ijtimoiy oʻzgarishga zamin yaratadi. Shu bois tanqidiy sotsiologiya nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ham egadir.

Zamonaviy tanqidiy yondashuvlar:

Bugungi kunda tanqidiy sotsiologiya bir nechta zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilgan: Feminizm – jamiyatdagi gender tengsizligi, patriarxal tuzum va ayollar ekspluatatsiyasi ustida ishlaydi.

Postkolonial nazariya – mustamlakachilik davrining ijtimoiy va madaniy merosini tanqid qiladi.

Ekotanqidiy yondashuv – ekologik inqiroz va atrof-muhitni himoya qilishni ijtimoiy adolat bilan bogʻlaydi.

Kritik irqshunoslik – irqchilik va etnik kamsitishning ijtimoiy tuzilmalar bilan qanday aloqasi borligini ochib beradi. Tanqidiy sotsiologiya — nafaqat jamiyatni tushunishga, balki uni oʻzgartirishga ham intiladigan sotsiologik yondashuv. Tanqidiy sotsiologiya — bu jamiyatni chuqurroq oʻrganib, undagi kuch tengsizligi, zoʻravonlik, ustunlik tizimlari, va ijtimoiy adolatsizlik kabi muammolarni ochib berishga harakat qiladigan sotsiologiya yoʻnalishidir³.

Tanqidiy sotsiologiya bu insonlar bir- birlari bilan har doim biror nima ustida kelisholmay qoladi. Chunki insoniyat har doim biror narsani tanqid ostiga oladi. Shu sababli kishilar oʻrtasida kelishmovchilik kelib chiqadi. Buning oldini olish uchun hozirgi kunda sotsiologiya fani juda rivojlanib boryapti. Bu fan jamiyatdagi muammolarni oʻrganadigan fan hisoblanadi. Bu fan sababli jamiyatdagi muommolar ham kamayib boryapti. Bu fan har qaysi yoʻnalish yaʼni jamoatchilik sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi shu kabi sohalarda ham faoliyat olib boradi. Negaki insonlar bir joyga yigʻilishsa jamoa paydo boʻladi. Shundan soʻng u yerda kimdir kimni tanqid qila boshlaydi. Shuning uchun ham bu fan hayotimizda, jamiyatimizda kerakli fan hisoblanadi⁴.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, Tanqidiy sotsiologiya — bu jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tuzilmalarni tanqidiy koʻz bilan tahlil qiladigan va ularni oʻzgartirishga intiladigan sotsiologik yondashuvdir. Bu yoʻnalish jamiyatdagi kuch tengsizligi, adolatsizlik, zoʻravonlik va ustunlik tizimlarini fosh etib, ijtimoiy adolat va tenglikka erishishni maqsad qiladi. Karl Marks asos solgan bu yondashuv hozirgi kunda ham dolzarb boʻlib, turli zamonaviy muammolarni chuqur tahlil qilishda muhim rol oʻynaydi.

³ G.SH.Jiyanmuratova “Sotsiologiya tarixi” darslik, Toshkent-2020

⁴ <https://www.samdu.uz/upload/content-files/60311000-Sotsiologiya%20Fan%20katalogi>

REFERENCES

1. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/24/NamDU-ARM-7776-Sotsiologiya_tari.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya>
3. G.SH.Jiyanmuratova “Sotsiologiya tarixi” darslik, Toshkent-2020
4. <https://www.samdu.uz/upload/content-files/60311000-Sotsiologiya%20Fan%20katalogi>